


2021- yil yanvar-noyabr oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida Samarqand viloyatida jami 6 166,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 114,0 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil yanvar-noyabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,4 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,3 mingtani tashkil etib, o'tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 206 taga ko'paygan.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilishi ishlari hajmi 3,4 martaga ko'payib (jami qurilishdagi ulushi 52,8 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 39,9 % ni tashkil etdi.




Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.12.2020- yil	01.12.2021- yil	
Samarqand viloyati	3 058	3 264	206
Samarqand sh.	1 068	1 124	56
Kattaqo'rg'on sh.	104	123	19
tumanlar:			
Oqdaryo	143	153	10
Bulung'ur	67	74	7
Jomboy	118	134	16
Ishtixon	145	144	-1
Kattaqo'rg'on	120	134	14
Qo'shrabot	67	70	3
Narpay	85	87	2
Payariq	244	271	27
Pastdarg'om	310	301	-9
Paxtachi	65	71	6
Samarqand	136	149	13
Nurobod	43	61	18
Urgut	212	230	18
Toyloq	131	138	7



Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.12.2021- yil holatiga



Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (31,9 %), Pastdarg'om (8,5 %) va Payariq (6,8 %) tumanlaridir.



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **820,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 114,6 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi nisbatan ulushi 13,3 % ni tahskil qildi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, % da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **40,3%**), Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,3 %**), Pastdargʼom tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **29,2 %**), va Bulungʼur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,8%**) tumanlarga toʼgʼri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-noyabr
- 2020- yil yanvar-noyabr


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **21,7 %** ni tashkil etib, **1 336,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-noyabriga nisbatan kamayish kuzatilib, **93,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **65,0 %** i bajarilib, 2020- yilning yanvar-noyabriga nisbatan **4,4 %** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,8 %** ni tashkil etgan holda **4 008,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **183,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **70,3 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,0 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5 982,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **121,2 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,1%** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2021- yil
yanvar - noyabr



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2021- yil
yanvar - noyabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-noyabr




70,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **70,9 %** yoki **4 371,7 mlrd. so'mni** tashkil etgan.




18,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **786,3 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **18,0 %** ni tashkil etdi.



53,0 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 319,0 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,3%** ni tashkil etdi.



29,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1 266,4 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **29,0 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-noyabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
Samarqand viloyati	6 166,5	114,0	4 371,6
Samarqand sh.	1 966,0	108,9	1411
Kattaqo‘rg‘on sh.	168,6	102,6	119,5
tumanlar:			
Oqdaryo	394,2	139,5	275,4
Bulung‘ur	226,3	122,8	160,4
Jomboy	228,2	154,1	167,3
Ishtixon	297,7	112,6	210,3
Kattaqo‘rg‘on	168,3	101,8	122,1
Qo‘shrabot	164,6	113,4	117,1
Narpay	155,9	101,6	112,9
Payariq	416,6	109,5	294,1
Pastdarg‘om	523,0	119,6	342,1
Paxtachi	164,2	100,1	117,1
Samarqand	451,6	121,6	315
Nurobod	111,3	107,6	79,3
Urgut	304,0	104,7	216,8
Toyloq	426,0	121,5	311,2

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2020- yil yanvar-noyabr

7,2



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

17,3



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

75,5



Bino va inshootlarni
qurilishi

2021- yil yanvar-noyabr

2,8



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

52,8



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

44,4



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **17,7 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,1 %** punktga kamaydi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **16,1 %** punktga kamaydi, **33,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **23,3 %** punktga ko'payib, **48,9 %** ni tashkil etdi.



2021- yil
yanvar-noyabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **10,0** % ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **28,6** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **89,9** % (**29,1** % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1** % ni tashkil etdi.



2021- yil
yanvar-noyabr


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **6,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **13,4 %** punktga kamaydi. **93,6 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **13,4 %** punktga ko'paydi.



2021- yil
yanvar-noyabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-noyabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. soʻm)

Samarqand sh.
1966,0


1

2

Toyloq
426,0

Pastdargʼom
523,0

3



Eng kichik hajm

(mlrd. soʻm)

Nurobod
111,3

1

2

Qoʼshrobot
164,6

Paxtachi
164,2

3



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32

**2021- yil
yanvar-noyabr**

Samarqand viloyatida qurilish ishlari